

Ko'rnaga yangi sing laymashni, zin uchun unchi kashf qilgan narsam, boshlig'imizning xonasini orqavarotdan "Bermud uchburchagi" deyishlarini bilib olganim bo'ldi.

Nima uchun u yerga kemalaru samolyotlarni yutib yuboradigan joyning nomini qo'yishganini anchagacha tushunolmay yurdim.

Chet eldan, xizmat safaridan qaytgan kunim hammasi ma'lum bo'ldi-qo'ydi.

- Safar qalay o'tdi? - iljayib qarshi oldi boshlig'imiz.

- Juda yaxshi. Taassurotlar zo'r, - javob berdim men.

- "Urgan daryo" deganlari shu-da! Barakalla! Xo'sh, nimalar olib keldingiz? - yana so'radi u.

- Sizga ko'pdan-ko'p salomlar olib keldim...

- Uni qo'yaturing, - so'zimni bo'ldi boshlig'imiz, - yana nima?

- Yana?.. Rangli fotosuratlar... Kitoblar... - dedim hech nimaga tushunolmay.

- Yana? - qovog'ini uyib menga sinovchan tikildi boshlig'imiz.

- Yana... yana o'zimga bitta charm kurtka oldim...

- Ana shulardan gapiring! - chehrasi ochildi boshlig'imizning. - Yana nima?

- Yana... Manavi diplomat sumkani oldim, - dedim tizzamdag'i sumkani ko'rsatib.

- Qani, qani, ko'raylik-chi? - dedi boshlig'imiz qo'llarini cho'zib va stol ustiga qo'yib sumkani ochdi. - Voy-bo! Zo'r-ku! Timsoh terisidanmi deyman? Yaxshi, yaxshi. Bu nima?

- Avtoruchka, - hayron bo'ldim men. - Uchida kichkina chiroqchasi ham bor ekan, kechasi yozsa ham bo'larkan...

Boshlig'imiz avtoruchkani "shiq" etib ohib, yozib ko'rди.

- Zo'r, zo'r! Yaxshi yozarkan. Shunda sizning hisobotingizga imzo chekamiz-da endi. A?..

- Mayli, mayli, - dedim men hamon garang bo'lib.

Boshlig'imiz yana sumkani kavladi.

- Bu nima?

- Bu... Hisoblash mashinasi. Kalkulyator. Hisoblagan raqamlaringizni aytib turarkan...

- O, dahshat-ku! - xushnud jilmaydi boshlig'imiz. - Gugurtdekkina ekan. Yaxshi, yaxshi. Endi maoshu mukofot pullaringizni shunda hisoblaymiz-da? A, labbay?

- Mayli, mayli, Sayfi Soqievich, - dedim bo'shashib.

- Bunisi-chi?

- Bunisi qalamtarosh ekan. Havasim kelib oldim. Juda safarbop ekan. Qaychisiyam, pichog'iyam, tirnoq tozalaydigan egoviyam, vino po'kagini ochadigan buramsiyam, otvyortkasiyam bor ekan...

- Ana shunaqasidan qidirib yurgandim, - dedi boshlig'imiz qalamtaroshni tortmasiga solib. - Rahmat sizga! Bu-chi?

- Bunisi yon daftarcha ekan. Yozib bo'lgandan keyin shundoq barmoqlaringiz bilan silasangiz, yozuvlar o'chib ketarkan, - tushuntirdim men.

- O, zo'r, zo'r! - dedi boshlig'imiz qihillab kulib. - Chet elliklar balo-da! Qoyilman! Endi shu daftarchaga "Shularni hurmatli boshlig'imiz Sayfi Soqievichga sovg'a qilaman", deb yozib berasiz-da, uka! Esdalikka!

- Mayli, - dedim men hafsalam pir bo'lib va yozib berib, uning xonasidan ship-shiydon bo'lib chiqib ketdim...

Yo'lakda bir xonada o'tiradigan hamkasbim ko'rindi.

- Ha, qalay, yaxshi keldingizmi?

- Rahmat, - dedim xo'rsinib.

- Qalay bo'ldi? Nimalar olib keldingiz? - yana so'radi u.

- Hech vaqo, - dedim qisqagina qilib.

- Ie, qaerga borgandingiz o'zi? - ajablandi hamkasbim.

- "Bermud uchburchagi"ga, - dedim alam bilan.

- A? - iljaydi hamkasbim va qah-qah urib yubordi. - Ha-a, tushunarli, tushunarli. Men ham "Bermud uchburchagi"ga uch-to'rt marta borib kelganman!

- Hammasini yutib yubordi, la'nati, - dedim men hasrat bilan, - diplomat sumkaniyam, avtoruchka, kalkulyator, qalamtarosh, yon daftarchayam qulog'inii ushlab ketdi.

- E, siz oson qutulibsiz, og'ayni, - iljaydi hamkasbim, - men o'tgan yili xizmat safaridan qaytganimda "Bermud uchburchagi" bitta kostyum-shim bilan videomagnitafonni yamlab yuborgan edi.

- Ana xolos! - deb yubordim men.

- Bunisi holva, - davom etdi hamkasbim, - "Bermud uchburchagi" avvalgi bosh buxgalterimizning o'zini yutvorgan!

- Yo'g'e? - hayron bo'ldim men. - Qanaqasiga?

- Buxgalter boyaqish safardan sovg'a-salomsiz kelgan ekan.

- Nima qibdi?

- Nima qibdimish? - kului hamkasbim. - Keyin ketdi. Oxir-oqibat, ariza yozib bo'shab ketishiga to'g'ri keldi...

\* \* \*

Mening ariza yozishimga hojat qolmadi. Keyingi xizmat safaridan kelganimda Sayfi Soqievichning o'zi yo'q edi. Aytishlaricha, "Bermud uchburchagi" bu safar uning o'zini yutib yuborgan emish...